
BILASIZMI?



Bilasizmi?

“Temurbeklar maktabi” ayrim bitiruvchilari test sinovlarisiz o’qishga qabul qilinadi

Qonunchilikka ko’ra, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari bitiruvchilariga OHTMga o’qishga kirishda Bilimni baholash agentligi tomonidan o’tkaziladigan test sinovlarida o’zlari to’plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi qo’shimcha ballar ko’rinishida imtiyoz berilishi belgilangan. (O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.12.2021 yildagi 775-son qarori)

Shuningdek, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylarini imtiyozli diplom bilan tugatgan bitiruvchilarga tarkibida "Temurbeklar maktabi" bo’lgan vazirlik va idoralarning tegishliligi bo’yicha OHTMga test sinovlarisiz o’qishga kirish huquqi beriladi.

Xamdamov Javohirbek Sherzodbek o’g’li - Farg’ona shahar adliya bo’limi Davlat xizmatlari markazi katta mutaxassisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-19 18:39:47